Iplarni jixozlashdan o'tkazilmaydigan xollarda tugayotgan iplarning oxirgi uchlari bilan yangi olib kelingan tanda iplarining uchi bog'lanadi. Ip bog'lash mashinalari qo'zg'almas bir joyda o'rnatilgan, xarakatlanuvchi va unversal turlari mavjud. Men loyixada Staubli Delta 200, Staubli Tomatik (Shvettsiya) ip bog'lash mashinasini kabul qilindi.

Ulash jarayoni ko'rsatkichlari.

10-jadval

Avomatik ulash mashinasining texnik ta rifi.

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'dchov birliqi	qiymati
1	Mashinani ishsi kengligi	Mm	1750
2	Ulash tezligi	Ul.min.	500
3	Ulanadigan tanda iplari chiziqliy zichligi	Teks	8,5-500
4	Istemol qilinadigan elektr energiya	Vt.soat	10
5	Gabarit o'lchamlari: Uzunligi Balandligi	Mm Mm	500 800-1210
6	Og'irligi karetk bilan	Kg	335
7	Og'irligi karetkasiz	Kg	16
8	Elektrodaigatel quvvati	KVT	0,1

Ulash jarayoni ko'rsatkichlari.

11 -jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'dchov birliqi	qiymati
1	O'lanayotgan ipni chiziqliy zichligi	Teks	50
2	Ulash tezligi	Ul.min	600
3	Tanda iplarining umumiy soni	Dona	3186
4	O'rta iplar soni	Dona	3066
5	Qirg'oq iplari soni	Dona	120
6	To'qimani tig' bo'yicha taxtlash kengligi	Sm	173,66
7	To'qimani o'rtasi kengligi	Sm	155,73
8	To'qima qirg'og'i kengligi	Sm	3,0
9	Hom to'qima kengligi	Sm	158,73

O'tkazish jarayonini tanlash va izoxlash.

O'tkazish bu tuquv dastgoxining yechiluvchi qismlaridan (tanda kuzatgich gula va tig'lardan) tanda iplarini belgilangan ketma ketlikda olib o'tishda aytiladi. PSM markali mexanizatsiyalashgan o'tkazish dastgoxi taxtlash kengligi bo'yicha farq qiluvchi 4 xil PSM- 140,PSM -175,PSM- 230 va PSM- 250 kabi turidagilar mavjud. PS, PSM rusumidagi o'tkazish dastgoxlarida ikkita ishchi ishlaydi, biri uzatuvchi, biri o'tkazuvchi vazifasini bajaradi.

Sanoatda Rossiyaning PS, PSM rusumidagi, AQShning Barber-Kolman, Staubli Delta 200, Staubli Warplink kabi o'tkazish dastgox va avtomatlari mavjud.

Bu dastgoxda tanda iplarini gula va tig'lardan xatosiz o'tkazishni ta'minlaydi. O'tkazish jarayonini amalga oshirish uchun to'qimani to'qishga Warplink mexanizatsiyalashgan o'tkazish dastgoxini tanladim.

12-jadval

Warplink o'tkazish dastgoxini texnik xarakteristikasi

	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Eng katta taxtlash mumkin bo'lgan ishchi kenglik	mm	1750
2	O'rnatilishi mumkin bo'lgan eng ko'p shodalar soni	Dona	12
3	Eng ko'p o'rnatilishi mumkin bo'lgan tanda kursatkichlar soni	Dona	2-6
4	1minutdagi shodalar kursatkichlar soni	shoda/min	11-12
5	Dastgox o'lchamlari: Kengligi Uzunligi Balandligi Og'irligi	mm Kg	1600 2020 1780

To'quv dastgoxlarini tanlash va izoxlash.

Pnevmatik to'quv dastgoxda arqoq ipi xavo bosimi yordamida yuboriladi. Bunday dastgoxlar asosan Belgiya, Germaniya, Chexiya, Yaponiya, Gollandiya va Hvettsiyalarda va ishlab chiqariladi.

Belgiyani "Omni plus" firmasi Pikanol rusumli to'quv dastgoxlarida arqoq ip dastgoxni chap tomonidan xomuzaga tashlanadi. Dastgoxlarga umumiy kompressorlardan xavo yuboriladi. Havo bosimi soplo yordamida ,konfuzorlar

orasidan ipni yetaklab o'tib, xavo yordamida ip uchini so'ruvchi moslamaga yetkazib beradi. Tashlangan ipni oxirgi qismi moslama yordamida milk bilan kesiladi. To'qima milkini mustaxkamlash uchun yeshiluvchi iplar ishlatiladi. Bundan tashqari, ko'proq Chexiyada va Yaponiyada xam ishlab chiqarilmoqda, bu dastgoxlarda bosh valning aylanish soni 480 min^{-1} ga yetkazilgan. Pikanol rapirali to'quv dastgoxida ingichka paxta iplaridan batist, o'rta yo'g'onlikdagi iplardan duxoba, vel vet va bayka to'qimalarini to'qish imkoniyatiga ega.

“Omni plus” Pikanol pnevmatik to'quv dastgoxida turli paxta, kimyoviy, fasson, yuqori eshimga ega bo'lgan, egiluvchan va teksturlangan iplarni ishlatilinishi mumkin.

Dastgoxda xar xil arqoq 6-250 teks iplar va 22-100 detsiteks kimyoviy iplar uchun ishlatish imkoniyatiga ega.

13 -jadval

Pnevmatik Ricanol to'quv dastgoxni texnik tavsifi.

№	Ta`rif elementlari	O'lchov birligi	Ta`rif ko'rsatkichi
1	Ishchi eni.	mm	1900
2	Bosh valning aylanish soni	min^{-1}	300-400
3	To'qimani arqoq bo'yicha zichligi,	ip/sm.	2-200
4	To'quv g'altagi o'lchami Gardish diametri O'zak diametri	Mm	800-1000 150
5	To'quv valigi diametri	Mm	76
6	To'qima o'rami diametri	Mm	720
7	Shodalar soni O'rtadagi iplar uchun Milk iplari uchun	dona	10-14
8	Gabarit o'lchami Uzunligi Kengligi Balandligi	Mm	4613 2009 1400
9	Elektr yuritgich quvvati	kVt	5,5

Jarayon ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Art.
1	Ishchi eni.	mm	1800
2	Bosh valning aylanish soni	min ⁻¹	400
2	Ip chizikli zichligi	Teks	50
3	O'ram zichligi	Gr/sm ³	0,5
4	Tanda iplarining umumiy soni	Dona	3186
5	O'rta iplar soni	Dona	3066
6	qirg'oq iplari soni	Dona	120
7	To'qimani tig' bo'yicha taxtlash kengligi	sm.	173,66
8	To'qimani o'rtasi kengligi	sm.	155,73
9	To'qima qirg'og'i kengligi	sm.	3,0
10	xom to'qima kengligi	sm.	158,73

To'qimani saralash, o'lchash va tozalash mashinalarini tanlash va izoxlash

To'quv dastgoxlarida to'qilgan xom to'qima hisoblash-navlarga ajratish bo'limiga yuboriladi. Bu yerda u navlarga ajratiladi, o'lchanadi, tozalanadi va pardoqlash bo'limiga jo'natish uchun tayyorlanadi. Xom ip to'qimasining sifati (navi) davlat standartlari asosida tekshiriladi va baxolanadi.

To'qimalar sifati ularning fizik-mexanik xossalari normalarga mos kelishiga va tashqi ko'rinishidagi nuqsonlarga qarab baxolanadi. Bunda to'qimalarning ikki navi (birinchi va ikkinchi) belgilanadi.

To'qimalarning tashqi ko'rinishidagi nuqsonlar gazlamaning ma'lum cheklangan joylaridagi nuqsonlarga (dog'lar, siyraklik chala o'rilish, zichlashgan joylar) va

butun gazlama to'piga yoyilgan nuqsonlarga (kirlanganlik, yo'l-yo'llik, xar xil tuslilik) bo'linadi.

To'qima sifatini baxolash, ya'ni navini aniqlashda balli sistemadan foydalaniladi va u fizik-mexanik xossalari xamda tashqi ko'rinishidagi nuqsonlar bo'yicha ballarning umumiy yig'indisi bilan aniqlanadi.

To'qima nuqsonlarini tekshirish va to'qima uzunligini o'lchash uchun tekshirish va hisoblash bo'limlarida saralash mashinalardan foydalaniladi. Bu mashinalar tekshirish stoli bilan ta'minlangan, va to'qima enini o'lchash uchun metall chizg'ich o'rnatilgan, xamda tekshirish stoliga xira oyna qo'yilgan bo'lib, ichki tomonidan yoritiladi, bu tekshirishni yengillashtiradi. Stol qiyaligini 30° gacha burchakka o'zgartirish mumkin.

Bitiruv malaka ishimizda xozirgi vaqtda ishlatilaniyotgan o'lchov mashinasi olindi, shunindek saralash, tozalash va tarashlash mashinalari mavjud bo'lib ular xam loyixamizda qabul qilindi.

15-jadval

**Sifat nazorat bo'limida Stema mashinasini
texnik ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	qiymati
1.	Ishchi eni	mm	1600-2000
2.	Matoni taxtlash uzunligi	mm	900-1000
3.	To'qima tezligi	m/min	
4.	Gabarit o'lchamlari: a) kengligi b) uzunligi v) balandligi	mm	2600 12960 1370
5.	Elektr yuritgich quvvati	kVt	

3.8. O'ramlar hisobi.

O'ram g'altagini tanlashda o'lcham, eng katta o'ram g'altaklarni ish jarayonida mexnat unumdorligini, dastgox unumdorligini oshiribgina olmay chiqindi kamayishiga xam olib keladi. O'ram g'altaklarini o'lchamini tanlashda ip turiga karaladi (masalan : ipni kelib chikishi : tabiiy, sun`iy va xokazo, ip kalinligi) va texnologik jarayondagi dastgoxlar turiga e`tibor beriladi va xokazo.

O'ram g'altaklarini sg'imlarini hisoblashda xar bir jarayonda qabul qilingan parametrlardan foydalaniladi. O'ram g'altagini o'lchamlarini tanlash ish jarayonida mexnat va dastgox unumdorligini oshiribgina qolmay chiqindi kamayishiga xam olib keladi. G'altak o'ramlari o'lchamini tanlashda ip turiga, ya`ni tolaviy tarkibi, uning chiziqli zichligiga va texnologik jarayondagi dastgoxlar turiga ahamiyat beriladi.

G'altak o'ramlari sig'imlarini hisoblashda xar bir jarayonda qabul qilingan parametrlardan foydalaniladi.


O'ramlar hisobida bobina tandalash galtagi to'quv galtagi va boshqa o'ramlarning muvofiq uzunlikni aniqlashdan maqsad shu iplardan chiqindiga chiqadigan uzunlikni kamaytirish sarflanayotgan iplar uzunlikni to'quv dastgoxida to'qilayotgan to'qima bo'lagi uzunligiga moslashtirish xamda uskunalarining texnik tavsifida ko'rsatilgan o'ramlar o'lchamlarini hisobga olgan xolda ularning maksimal xajm, vazni va iplarning uzunliklarni aniqlash .

O'ramada iplarning uzunligini qancha katta bo'lsa ularga ishlatiladigan mashinalarning unumdorliklari shuncha yuqori bo'ladi. Shuning uchun avvalo o'ramlardagi iplarning xajmi va vazniga qarab, ularning maksimal uzunliklarini topiladi.

O'ramdagi iplarning uzunliklari nafaqat mashina unumdorligiga ta`sir etadi, ular shuningdek maxsulot sifatiga vayniqsa, texnologik jarayonlardagi chiqindilar miqdoriga xam ta`sir etadi. O'ramadagi iplarning muvofiq uzunliklarini to'g'ri aniqlash bevosita chiqindilar miqdorini aniqlaydi.

O'ramlar hisobini to'qima ishlab chiqarish texnologik jarayoniga teskari tartibda bajariladi, ya'ni, to'quv g'altagi, tanda g'altagi, qayta o'rash mashinasidan olingan bobinalar hisoblanadi.

1. To'quv dastgoxi g'altagi.



Hisoblash uchun kerak bo'lgan o'lchamlar.

1. D_f – g'altak diskini diametri, mm.q800
2. d_a – g'altak o'qini diametri, mm.q150
3. D_{ur} – g'altakdagi ip o'rami diametri, mm.
4. H – disklar oraligi, mm.q1900

$$D_n = D_f - (20-30) \text{ mm} = 800 - 30 = 770$$

1. To'quv dastgoxi oxorlangan ip og'irligi

$$V = \frac{\pi * H}{4} * (D_{yp}^2 - D_n^2) [cm^3] = \frac{3,14 * 190}{4} * (77^2 - 15^2) = 850751,6$$

2. To'quv g'altagidagi oxorlangan ip og'irligi.

$$G_{ox} = \frac{V * X}{1000} [kg] = \frac{850751,6 * 0,5}{1000} = 425,375$$

γ - g'altadagi ip o'ramini nisbiy zichligi gr/sm³.

3. G'altakdagi yumshok ya'ni oxorlanmagan ip yoki tola og'irligi

$$G_{\text{юм}} = \frac{G_{\text{ок}}}{1 + 0.01 * \Pi_{\text{хак}}} [\text{кг}] = \frac{425,375}{1 + 0,01 * 2} =$$

$P_{\text{хақ}}$ – oxorni ipga xakikiy singish miqdori, protsent (oxorlash parametriga karang)

4. To'quv g'altagiga urash mumkin bo'lgan eng yuqori ip uzunligi.

$$L_{\text{юкори тук .гал .}} = \frac{G_{\text{юм}} * 10^6}{T_T * n_T * (1 - 0.01 * B\%)} = \frac{425,375 * 10^6}{50 * 3186 (1 - 0,01 * 1)} = 2697,248$$

T – tanda ipini kalinligi (teks)

p_t – g'altakdagi tanda iplarini soni.

$V\%$ - oxorlashda tandani uzayishi miqdori, protsent.

5. To'quv g'altakdagi tanda ipini muvofiq (foydali) uzunligini hisoblash. Bir to'quv g'altagidagi tanda uzunligidan bir necha butun to'qima bo'laklarini olish kerak. Xar bir bo'lak to'qimani uzunligi 18 metrdan 150 metrgacha bo'lishi mumkin. Bu asosan to'qima tuzilishiga bog'liq.

Masalan: Paxtada to'qilgan to'qimalarda ko'p xollarda bir bo'lak 50 metrga teng deb olinadi.

A) Bir bo'lak to'qima to'qish uchun sarflanadigan tanda ipini uzunligini hisoblash.

$$L_T = l_{xom} * \frac{1}{1 - \frac{a_m}{100}} [M] = 50 * \frac{1}{1 - \frac{6,1}{100}} = 50 * \frac{1}{0,939} = 53,248$$

L_{xom} – bir bo'lak to'qima uzunligi 45 - 50

a_t – to'quvchilikda urilish hisobidagi tanda iplarini kiskarish miqdori % da.

B) Bitta to'quv g'altagidan chiqadigan to'qima rulonlar soni.

$$K_P^1 = \frac{L_{\text{мук.гал}}^{\text{юкори}}}{\Pi * L_T} [\partial o n a] = \frac{2697,248}{3 * 53,248} = 16,884 \approx 16$$

$P=2$ yoki 3 , - bitta rulondagi to'qima bo'laklari soni

V) g'altakdagi tanda iplarini foydali uzunligi.

$$L_{\text{мук.гал}}^{\text{мувоф}} = K_P * \Pi * L_T + l_{ym} + l_{\text{мук}} [M] = 16 * 3 * 53,248 + 0,5 + 2,0 =$$

$L_{o't}$ – o'tkazish jarayonidagi tanda iplarini chiqindiga chikib ketadigan uzunligi.

$$L_{o't} = 0,5 - 0,8 [M]$$

$L_{to'k}$ – to'quv dastgoxi va to'quv g'altagida keladigan tanda iplarini uzunligi
 $[M] \quad L_{to'q} = 2,0 - 3,0 [M]$

Hisoblash sharti ya'ni muvofiq (foydali) uzunlik eng yuqori uzunlikdan kam bulishi shart.

$$L_{\text{мук.гал}}^{\text{юкори}} > L_{\text{мук.гал}}^{\text{Мувоф}} [M] \quad 2697,246 > 2558,404$$


G) To'quv g'altagidan tandani xakikiy og'irligi.

$$G_{xak} = \frac{L_{\text{мывод}} * n_T * T_T * (1 - 0.01 * B\%)}{10^6} = \frac{2558 * 3186 * 50 * (1 - 0.01 * 1)}{10} = [кз]$$

Ipak tolalaridan olinadigan tanda iplarini to'quv g'altagiga urashda fartuk ishlatiladi. Bu fartuk kop kurinishida tayyorlanib, g'altak stvoliga kiydirib kuyiladi va bunga tandani uni ulanadi. Bu xolatlarda tanda ipi 1,5-2 metr uzunlikda g'altakda koladi, ya'ni to'qima cheti (yokasi) va tanda nazoratchisi oraligida.

$$G_{yuk} > G_{xak} \quad 425,375 > 403,478$$

Tanda g'altagini hisobi.



$D_{o'r}$ – davra g'altagidagi o'ram yugonligi (mm)

$d_{o'q}$ – davra g'altaging o'kini diametri (mm)-300

D_f – davra g'altagi diskini diametri (mm)-800

H – davra g'altagi disklari orasidagi masofa (mm)-1900

$D_{o'r}$ – o'ralgan g'altakdagi ip o'rami diametri, mm.

$$D_{o'r} = D_f - (2-3) [cm] = 800 - 300 = 770$$

1. Davra g'altagidagi ipning xajmi.

$$V = \frac{\Pi * H}{4} * (\mathcal{D}_{\dot{y}p}^2 - d_{\dot{y}K}^2) [cm^3] = \frac{3,14 * 190}{4} * (77^2 - 30^2) = 750075,35$$

2. Davra g'altagidagi ipning og'irligi.

$$G = \frac{V * \gamma}{1000} = \frac{750075,35 * 0,55}{1000} = 412,541 \quad [kg]$$

Bu yerda γ - davra g'altagiga uralayotgan ipning nisbiy zichligi, (Davralash parametrlariga karang).

3. Davra g'altagiga sogishi mumkin bo'lgan ipning uzunligi.

$$L_{\text{докори}}^{\text{догол}} = \frac{G * 10^6}{T^T * M_g} [m] = \frac{412,541 * 10^6}{50 * 455} = 18133,670$$

Bu yerda : G – davra g'altagidagi ipning og'irligi [kg]

T_T – tanda ipning chizikli zichligi [текс]

M_g – davra g'altagidagi iplar soni [доиа]

a) guruxdagi davra g'altaklari soni :

$$K_{\text{до.}F}^1 = \frac{n_T}{\Pi_{\text{и}}} [\text{доиа}] = \frac{3186}{480} = 6,6 \approx 7$$

p_T – to'quv g'altagidagi iplar soni, dona

P_{Sh} – davra ramkasini sig'imi, dona

Olingan $K_{d.g'}$, qiymatini katta tomoniga butun songa butunlaymiz va $K_{d.g'}$, bilan belgilaymiz.

b) Davra g'altagidagi tanda iplari soni, dona

$$M_g = \frac{n_T}{K_{g.F}} [\text{доиа}] = \frac{3186}{7} = 455,142$$

M_g – qiymati butun son bulishi kerak.

4. Davra g'altagidagi ip uzunligi bilan to'quv g'altagidagi ip uzunligi orasidagi muvofiq (foydasi) uzunligi hisobi.

a) Bir gurux davra g'altagida olinadigan to'quv g'altaklar soni

$$K_{T.F} = \frac{L_{\text{юкори}}^{\text{дав.гал}}}{L_{\text{мувоф}}^{\text{тук.гал}}} [\partial \text{она}] = \frac{18133,670}{2558,404} = 7,08$$

$L_{\text{дав.гал}}^{\text{юкори}}$ - davra g'altagidagi sigishi mumkin bo'lgan ipning uzunligi m

$L_{\text{тук.гал}}^{\text{мувоф}}$ - to'quv g'altagidagi ipning muvofiq uzunligi, metr

b) davra g'altagidagi ipning dastlabki muvofiq uzunligi, metr

$$L_{\text{дав.гал}}^{\text{мувоф}} = L_{\text{тук.гал}}^{\text{мувоф}} * K_{T.F} + V_{\text{ахор}} [M] = 2558,404 * 7 + 32,855 = 17941,683$$

$U_{\text{ахор}}$ – oxorlash jarayonida chiqadigan chiqindi, metr

$$V_{\text{ахор}} = l_1 + l_2 * \left(\frac{K_{\partial.F} - 1}{K_{\partial.F}} \right) [M] = 20 + 15 \left(\frac{7 - 1}{7} \right) = 32,855$$

L_1 – yelimlangan (oxorlangan) ip uchlari uzunligi, metr $L_1=20-42$

L_2 –davra g'altagidagi koladigan yumshok oxorlanmagan iplarning o'rtacha uzunligi, metr $L_2 = 15-20$

V) Davra g'altagidagi ipni xakikiy foydali uzunligi, metr (oxorlash jarayonidagi iplarni uzayishini hisobga olgan xolda).

$$L_{\text{дав.гал}}^{\text{мувоф}} = \frac{L_{\text{дав.гал}}^{\text{мувоф}}}{1 - 0.01 * B \% } [M] = \frac{17941,683}{1 - 0.01 * 1} = 18122,912$$

V%-oxorlash jarayonidagi iplarni uzayishi, % (oxorlash ko'rsatkichiga qarang).

Davra g'altagidagi ipning muvofiq uzunligi davra g'altagiga sigishi mumkin bo'lgan uzunlikdan katta bo'lmasligi kerak va quyidagi shart bajarilishi kerak :


$$L_{\text{дав.гал}}^{\text{юкори}} > L_{\text{дав.гал}}^{\text{мувоф}} [M] \quad 18133,670 > 18122,912$$

G) Davra g'altagidagi ipning muvofiq og'irligi.

$$G_{\text{мувоф}} = \frac{L_{\text{дав.гал}}^{\text{мувоф}} * Mg * T_T}{10^6} [\kappa\text{г}] = \frac{18122,9 * 455 * 50}{10^6} = 412,295$$

$$412,541 > 412,295$$

Tsilindrsimon ip o'ramining hisobi.



D_{ur} – o'ram qalinligi, mm-200

d_{p} – patron qalinligi, mm-90

H – o'ram balandligi, mm-150

1. Tsilindrsimon ip o'ramini xajmini hisobi.

$$V = \frac{\pi * H}{3} * (D_{yp}^2 - d_{\pi}^2) [cm^3]$$

$$V = \frac{\pi * H}{3} * (D_{yp}^2 - d_{\pi}^2) = \frac{3,14 * 15}{3} * (20^2 - 9^2) = 5008,3 [sm^3]$$

2. O'ramdagi ip og'irligini hisoblash.

$$G = V * \gamma = [gramm] = 5008,3 * 0,35 = 1752,905$$

γ -o'ramdagi ipning nisbiy uralish zichligi, gr/sm³

γ -ni texnologik jarayonda qabul qilingan qiymatini aniklanadi.

3. Tsilindrsimon o'ramga uralish mumkin bo'lgan eng katta uzunligi.

$$L_{tsil.o'r.}^{yuqori} = \frac{G * 1000}{T_T} [m] = \frac{1752,9 \times 1000}{50} = 35058$$

T_T, T_A – tanda arqoq ipining chizikli zichligi, teks

Agarda tanda ipini davralashda uzlikli davralash kullansa, u xolda tsilindrsimon ip o'ramidagi ipning uzunligini davra g'altagidagi ipning foydali uzunligiga bog'lik xolda o'raladi.

4. Tsilindrsimon ip o'ramidan olinadigan davra g'altaklarini sonini hisoblash.

$$K_g^1 = \frac{L_{tsil.o'r.}^{yuqori}}{L_{d.g}^{yuqori}} [dona] = \frac{35058}{18133,6} = 1,93 \approx 1$$

Olingan K_g^1 kimaytini kichik tomonga kelasi butun songa butunlaymiz va K_{dav} bilan belgilaymiz.

5. Tsilindrsimon ip o'ramiga o'raladigan ipning kerakli foydali uzunligini hisoblash.

$$L_{tsil.o'r.}^{muvof} = L_{d.g}^{muvof} * K_{dav} + (200 / 600) [m] = 18133,6 \times 1 + 200 = 18333,6$$

Bu yerda : (200-600) m – Tsilindrsimon ip o'ramidagi ipning zaxira uzunligi (uzlukli davralash uchun)

$$L_{tsil.ur}^{yuk} > L_{tsil.}^{muv}$$

$$35058 > 18333,62$$

6. Tsilindrsimon ip uramidagi ipning xakikiy ogirligi

a) tanda uchun

$$G_{\text{tanda}}^{\text{xaq}} = \frac{L_{\text{tsil.ur}}^{\text{muv}} \times Tt}{1000} = [\text{gramm}] = \frac{18333,62 \times 50}{1000} = 916,68$$

$$G_{\text{tsil.ur}}^{\text{yuk}} > G_{\text{tsil.ur}}^{\text{muv}} \quad 1752,905 > 916,68$$

b) arqoq uchun

$$G_{\text{arqoq}}^{\text{xaq}} = \frac{L_{\text{tsil.ur}}^{\text{muv}} \times Tt}{1000} = [\text{gramm}] = \frac{18333,62 \times 50}{1000} = 916,68$$

$$G_{\text{tsil.ur}}^{\text{yuk}} > G_{\text{tsil.ur}}^{\text{muv}} \quad 1752,905 > 916,68$$

16-jadval

Ip o'ramlarini hisobini jamlash jadvali

No	Ip o'rami turlari	Uralish nisbiy zichligi gr/sm ³	O'ramni hisoblash xajmi sm ³	O'ramdagi o'ralishi mumkin bulgun ip eng katta uzunligi metr	O'ramdagi ipning muvofiq uzunligi metr	O'ramdagi ipning xaqiqiy og'irligi kg
1	Davra g'altagi	0,55	750075	18133,6	18122,9	412,2
2	To'quv g'altagi	0,5	850751,6	2697,2	2558,4	403,4
3	Tsilindirsimon ip o'ram tanda	0,35	5008,3	35058	18333,6	0,91668
4	Tsilindirsimon ip o'ram arqoq					0,91668

3.9. Texnologik jarayonning chiqindilar hisobi.

To'quv korxonalarida chiqadigan chiqindilarni hisoblash

Chiqindilar—to'quv ishlab chiqarishda ip yoki tolalarni yuqotishdir. Ip uzilganda ulash uchun, o'ramlarni mashinaga o'rnatish uchun sarf qilinadigan iplar chiqindiga chiqib ketadi. Chiqindilar miqdori o'ramdagi ip uzunligiga, ip sifatiga, dastgoxlar xolatiga ishchi malakasiga va xom – ashyoni saqlanish sharoitiga bog'liq.

Chiqindilarni hisoblash.

1. Davralash jarayonida chiqadigan chiqindilar hisobi

$$V_{\text{dov}} = \frac{l_1 + l_2 * K + l_4}{L_{\text{tsil . o'ram}}^{\text{mye}}} 100 [\%] = \frac{1 + 1 * 0,05 + 6,5 + 40}{18333,6} * 100 \% = 0,259$$

$L_1=1.0-2.0$ m – o'ramlarni almashtirish jarayonida ulash uchun sarf bo'ladigan ip uzunligi.

$L_2=1.0-2.0$ m – uzilgan ipni ulash uchun sarflanadigan ip uzunligi

$L_3=0.5*L_{\text{ram}}$ – davra ramkasi katoridan olib utish uchun sarflanadigan ip uzunligi, m. $0,5*13=6,55$

$L_4=40-600$ m – uzlukli davralashda babinadagi ortikcha zoxiradagi ipning uzunligi.

$L_{\text{kon . uram}}^{\text{myof}}$. konussimon ip o'ramining muvofiq uzunligi, m.

Agarda uzluksiz davralash usuli qo'llanganda

$L_3=0$ va $L_4=0$ teng deb olinadi.

K – 1 ta konussimon ip urmiga to'g'ri keladigan iplarni uzilishlar soni.

$$K = \frac{L_{\text{kon . uram}}^{\text{myof}} * Q \left[\frac{\text{yзук}}{1 \text{ урам}} \right]}{10^6} = \frac{18333,6 * 3}{10^6} = 0,05$$

$Q-10^6$ metr ga to'g'ri keladigan iplarni uzilishlari soni.

(davralash, parametriga karang)

2. Oxorlash jarayonidagi chiqadigan chiqindilar hisobi.

$$Y_{\text{oxop}} = \frac{l_1 + l_2 * (\frac{K_g - 1}{K_g})}{L_{\text{кон. урам}}^{\text{мувоф}}} * 100 [\%] = \frac{33 + 15 * (\frac{7 - 1}{7})}{18333,6} * 100 = 0,250$$

$L_1 = 33\text{-}42\text{m}$ chiqindiga chiqadigan yelimlarngan (oxorlangan ip uchlari uzunligi)

$L_2 = 15\text{-}20\text{m}$ davra g'altagidagida koladigan yumshok koldik iplarning uzunligi.

$K_{g,F}$ – partiyadagi davra g'altaklari soni.

$L_{g,F}^{\text{мувоф}}$ - davra g'altagiga uralgan ipning muvofiq uzunligi, m.

3. Utkazish va ulash jarayonida chiqadigan chiqindilarni hisobi.

To'quv korxonalarida tanda iplarini utkazish va ulash operatsiyalar amalga oshiriladi. Tanda iplarini to'quv dastgoxining yechiluvchi qismlaridan (tanda kuzatgich, gula kuzlaridan va berdotiglarida) kulda utkaziladi, buni utkazish deyiladi.

To'quv dastgoxida tanda ipi tugagan tanda ipining oxiriga yangi tayyorlangan to'quv g'altagidagi iplarni bog'lash bu ulash deyiladi.

O'tkazish asosan mexanik yoki yarim mexanik o'tkazish dastgoxlarida amalga oshiriladi. Ulash operatsiyasi esa qo'zgalmas yoki qo'zg'aluvchi ulash mashinalari yordamida amalga oshiriladi. To'quv korxonalarida 10/15 iplar o'tkaziladi, 85/90 % iplar esa ulanadi.

a) Qo'lda ip o'tkazish dastgoxida chiqadigan chiqindini hisobi.

$$Y_{\text{к. ут}} = \frac{l_{\text{см}}}{L_{\text{тук. зал}}^{\text{мувоф}}} \times 100 [\%] = \frac{0,6}{2558,4} * 100 = 0,023$$

$L_{\text{тук. зал}}^{\text{мувоф}}$ - to'quv g'altagidagi ipning muvofiq uzunligi, m

$l_{\text{ут}}$ qo'lda ip o'tkazish jarayonida chiqadigan chiqindi ipi uzunligi. (0,5-0,8)

b) Xarakatlanuvchi ulash mashinalarida tanda ipini ulash jarayonida chiqadigan chiqindi miqdorini aniqlash.

$$Y_{\text{ул. маш}} = \frac{l_1 + l_2 + l_3}{L_{\text{мувоф. тук. газ}}} * 100 [\%] = \frac{0,2 + 0,5 + 1,4}{2558,4} = 0,082$$

$L_1 * 0,2\text{m}$ – tanda ipi mashinaga taxtlashda sarflanadigan ip uzunliklari.

$L_2 * 0,5\text{m}$ – ulangandan so'ng eski tanda ipini qirqib tanlanadigan ip uzunligi.

$L_3 * 1,0\text{--}1,5\text{m}$ – ulangandan so'ng yangi tayyorlangan tanda ipidan qirqib tashlanadigan ip uzunligi va tugunlarni dastgox qismlaridan olib utish uchun sarf bo'ladigan uzunlik.

O'tkazish va ulash jarayonida chiqadigan umumiy chiqindilar miqdori.

$$Y_{\text{утк}} = \frac{Y_{\text{к. ут}} * \Pi_1 + Y_{\text{ул. маш}} * \Pi_2}{100} * [\%] = \frac{0,023 * 10 + 0,082 * 90}{100} = 0,076$$

P_1 —qo'lda o'tkaziladigan tanda iplari foizi.

P_2 —xarakatlanuvchi ulash mashinalari yordamida ulanadigan tanda iplarini foizi.

4. To'quv tsexida chiqadigan chiqindilarni hisobi.

a) To'quv dastgoxida tanda ipidan chiqadigan chiqindilarni aniqlash.

$$Y_{\text{tanda}} = \frac{l_1 + l_2}{L_{\text{мувоф. тук. газ}} * l_{\text{утк}}} * 100 [\%] = \frac{2,0 + 0,5}{2558,4 * 0,8} * 100 = 0,122$$

$l_1 - 2,0 / 3,0\text{m}$ - to'quv g'altagida ishlatilmay qolgan ip uzunligi.

$l_2 - 0,5 / 1,0\text{m}$ -to'quv dastgoxini qayta taxtlash uchun va qayta ishlash uchun sarflanadigan tanda ipi uzunligi.

$l_{\text{утк}}$ - o'tkazish jarayonida yukatiladigan ip uzunligi. 0,5-0,8

$l_1; l_2 * l_{\text{утк}}$ - qiymatlarini, o'ramlarni hisoblashda olingan qiymatlariga bog'lik xolda olinadi.

b) To'quv dastgoxida arcoq ipidan chiqadigan chiqindilarni aniklash.

$$Y_{\text{аркок}} = \frac{l_1 + l_2 + l_3 * K + l_4}{L_{\text{мувоф. аркок. урам}}} * 100 [\%] = \frac{1,5 + 2,0 + 0,5 * 0,109 + 29,173}{36467,3} * 100 = 0,089$$

$l_1 = 1,5 / 3,0_{.M}$ – arqoq ipi o'ramini to'quv dastgoixiga o'rnatishda sarf bo'ladigan uzunligi.

$l_2 = 2,0 / 5,0_{.M}$ – arqoq ip o'ramida qoladigan ip uzunligi.

$l_3 = 0,5 / 1,5_{.M}$ – arqoq ipi uzilganda, uni ulash uchun sarf bo'ladigan ip uzunligi.

$l_4 = 0,08 * L_{арк.ур}^{мувоф}$ -to'qimadagi nuqsonni yo'qotish uchun sarf bo'ladigan ip uzunligi.

$$l_4 = \frac{L_{арк.ур}^{мувоф} * 0.08}{100} [M] = \frac{36467,3 * 0.08}{100} = 29.173$$

$K - 1$ ta arqoq ip o'ramiga to'g'ri keladigan uzilishlar soni.

$$K = \frac{L_{ар.ур}^{мувоф} * Q_{арк}}{100} \left[\frac{yзул}{1 - yрам} \right] = \frac{36467,3 * 3}{10} = 0.109$$

$Q_{ar} - 10^6$ metr ga to'g'ri keladigan arqoq ipining uzilishlar soni. (to'quv dastgoxini parametrga qarang).

$L_{арк.ур}^{мувоф}$ - arqoq ip o'ramiga o'ralishi mumkin bo'lgan arqoq ipiinnng uzunligi, m.

To'qimachilik korxonasining xar bir bo'limidan chiqadigan chiqindilarni kuyidagi jadvalga kiritib, korxonadan chiqadigan chiqindilarni umumiy % ni aniklaymiz.

17-jadval

№	O'tishlar	Chiqindi miqdori [%]	
		Tanda bo'yicha [%]	Arqoq bo'yicha [%]
1.	Davralash bo'limi	0.259	
2.	Oxorlash bo'limi	0,25	
3.	O'tkazish bo'limi	0.076	
4.	To'quvchilik bo'limi	0.122	0.089
5.	Jami :	U tanda	U arqoq
6.	Xammasi :	0,707	0.089

3.10. 100 metr to'qima to'qish uchun sarflanadigan tanda va arqoq ipining chiqindilarni hisobga olgan xoldagi olgan og'irligini hisobi.

a) 100 metr to'qima to'qish uchun sarflanadigan tanda ipining chiqindilarni hisobga olgan xoldagi og'irligini hisoblash.

$$M_T = \frac{M_T^1}{1 - \frac{\sum y_{\text{TANJILA}}}{100}} [\kappa_2] = \frac{16.795}{1 - \frac{0.707}{100}} = 16.93$$

M_T^1 - 100 metr to'qimadagi tanda ipini yelimlanishini hisobga olmaganidagi og'irligi. (To'qimani taxtlash hisobiga qarang).

b) 100 metr to'qima to'qish uchun sarflanadigan arqoq ipining chiqindilarini hisobga olgan xoldagi arqoq ipining og'irligi.

$$M_{\text{apK}} = \frac{M_a^1}{1 - \frac{\sum y_{\text{apK}}}{100}} [\kappa_2] = \frac{14.304}{1 - \frac{0.089}{100}} = 14.318$$

M_a^1 - 100 metr to'qimadagi arqoq iplarini og'irligi, kg (to'qimani taxtlashda hisoblangan).[2]

18-jadval

3.11. Tanlangan mashina va dastgoxlarni tezligi va ish unumdorligi hisobi.

№	Mashina va dastgoxlarni nomi	Mashina va dastgoxlarni tezligi	F.I.K	F.V.K
1.	Tandalash mashinasi	300	0.97	0.5
2.	Oxarlash mashinasi	45	0.95	0.7
3.	Ulash mashinasi	600	0.93	0.45
4.	O'tkazish dastgoxi	-----	----	0.45
5.	To'quv dastgoxi	400	0.96	0.86
6.	To'qima sifati nazorati	70	0.96	0.7

1. Tandalash mashinasining ish unumdorligi hisobi.

a) Tandalash mashinasining nazariy ish unumdorligi hisobi

$$\Pi_{\text{тан}}^{\text{коз}} = \frac{V \cdot t \cdot T_T \cdot m_g}{10^6} = \frac{300 \cdot 60 \cdot 50 \cdot 455}{10^6} = 409.5$$

bu yerda:

v- tandalash mashinasi tezligi.

t- ajratilgan vaqt, 60 daqiqa

T_T- tandalanayotgan ipning chiziqli zichligi

M_g- tanda g'altagidagi iplar soni

b) tandalash mashinasining xaqiqiy ish unumdorligi hisobi

$$H_{\text{тан}}^{\text{хак}} = \Pi_{\text{тан}}^{\text{наз}} \cdot \Phi BK = 409.5 \cdot 0.5 = 204.75$$

2.Oxorlash mashinasining ish unumdorligi hisobi.

a) Oxorlash mashinasining nazariy ish unumdorligi

$$\Pi_{\text{охор}}^{\text{наз}} = \frac{v \cdot t \cdot T_T \cdot n_T}{10^6} = \frac{45 \cdot 60 \cdot 50 \cdot 3186}{10^6} = 430.11$$

Bu yerda: n_T –tanda iplarning umumiy soni

b) Oxarlash mashinasining xaqiqiy ish unumdorligi

$$H_{\text{охор}}^{\text{хак}} = \Pi_{\text{охор}}^{\text{наз}} \cdot \Phi BK = 430 \cdot 0.7 = 301.077$$

3.O'tkazish dastgoxining ish unumdorligi hisobi

a) Asosiy mashina ish vaqtining hisobi

$$T_O = \frac{3.5 \cdot n_T}{100} = \frac{3.5 \cdot 3186}{100} = 111.51$$

b) bir smenadagi dastgoxning ishlab chiqarish xajmi

$$H_o = \frac{(T_{cm} - T_{\bar{\theta}})}{T_O + T_{ai}} \cdot G_{m.z}^{\text{хак}} = \frac{480 - 20}{111.51 + 9} \cdot 403.4 = 1539.822$$

bu yerda: T_{sm} q 480daq ya`ni: 8 soatga teng qilib olinadi

T_b –mashinani ishga tushirish

T_{v.i} –mashinani moylash va tozalashga ketadigan vaqt.

v) 1 soatdagi dastgoxni ishlab chiqarish xajmi

$$H_{\bar{\theta}} = \frac{H_o}{8} = \frac{1539.822}{8} = 192.477$$

4.Ulash mashinasining ish unumdorligi hisobi.

a) Ulash mashinasining nazariy ish unumdorligi.

$$\Pi_{\text{улаши}}^{\text{наз}} = \frac{v \cdot 60}{n_T} \cdot G_{T.2}^{\text{хак}} = \frac{500 \cdot 60}{3186} \cdot 403,4 = 3798,414$$

bu yerda: $G_{T.2}^{\text{хак}}$ - to'quv g'altagining xaqiqiy og'irligi
 v - ulash mashinasini tezligi.

b) ulash mashinasining xaqiqiy ish unumdorligi

$$H_{\text{улаши}}^{\text{хак}} = \Pi_{\text{улаши}}^{\text{наз}} \cdot \Phi_{BK} = 3798,414 \cdot 0,45 = 1709,286$$

5.To'quv dastgoxining ish unumdorligi hisobi.

Nazariy ish unumdorlik

a) metrda

$$A_{T1} = \frac{n \cdot 60 \cdot K_{\Pi}}{P_a \cdot 10} = \frac{M}{c} = \frac{400 \cdot 60}{162 \cdot 10} = 14,814$$

bu yerda: n - to'quv dastgoxi bosh vali aylanishlar soni

K_p - bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan to'qima soni

R_a - to'qimani arqoq bo'yicha zichligi

b) metr kvadratda

$$A_{T2} = \frac{n \cdot 60 \cdot K_{\Pi} \cdot B_x}{P_a \cdot 10} = \frac{M^2}{c} = \frac{400 \cdot 60 \cdot 1,587 \cdot 1}{162 \cdot 10} = 23,511$$

bu yerda: V_x - xam to'qima kengligi

v) Arqoq soatda

$$A_{T3} = n \cdot 60 \cdot K_{II} = 400 \cdot 60 \cdot 1 = 24000$$

g) ming arqoq soatda

$$A_{T4} = n \cdot 60 \cdot K_{\Pi} \cdot B_x = \frac{M}{ap \cdot coam} = 400 \cdot 60 \cdot 1,587 = 38088$$

6.To'quv dastgoxi xaqiqiy ish unumdorligi hisobi

a) metrda

$$H_{M1} = A_{T1} \cdot \Phi \cdot B \cdot K = 14,814 \cdot 0,86 = 12,740$$

b) metr² da

$$H_{M2} = A_{T2} \cdot \Phi \cdot B \cdot K = 23,511 \cdot 0,86 = 20,219$$

v) arqoq soatda

$$H_{M3} = A_{T3} \cdot \Phi \cdot B \cdot K = 24000 \cdot 0,86 = 20640$$

g) ming arqoq soatda

$$H_{M4} = A_{T4} \cdot \Phi \cdot B \cdot K = 38088 \cdot 0,86 = 32755,68$$

7.“STEMA-201” patpok liniyasining ish unumdorligi hisobi .

$$H_M = V \cdot 60 \cdot \Phi \cdot B \cdot K = 70 \cdot 60 \cdot 0,7 = 2940$$

bu yerda: v-potok liniya tezligi , $v = 7 \div 80$, qabul qildim. vq70m/min. [4]

3.12. To'quvchilik korxonasining ishlab chiqarish dasturi.

19-jadval

To'qimaning nomi		1	Polotno
Artikuli		2	4577
Dastgox turi		3	Pikanol
Xom to'qima kengligi sm		4	158,73
10 smdagi iplar soni	Tanda bo'yicha	5	50
	Arqoq bo'yicha	6	50
Dastgox soni		7	192
Smenalar soni		8	3
Ish tartibi	Smena davomiyligi	9	8
	1 yildagi ish kunlar soni	10	308
	1 yildagi ish soatlar soni	11	7293
Taxtlangan dastgoxlar soni		12	1419,264
Dastgoxning ishlash koefitsenti		13	0,96
Ishlayotgan dastgoxlar soati		14	1362,493
Unumdorlik normasi	m/s	15	12,74
	metr ² /soat	16	20,219
	arqoq/ soat	17	20640
	metr arqoq/soat	18	32755,68
	1000 m	19	17358,161
Yillik ishlab chiqarish xajmi	1000 metr ²	20	27548,245
	1 mln arqoq	21	28530,603
	1mln arqoq metr	22	44269,385
	Tanda iplari	23	16,93
	Arqoq iplari	24	14,318
100 metr xom to'qima to'qish uchun sarflangan ip miqdori, kg. (chiqindilarni hisobga olganda)	Jami	25	31,248
	Tanda iplari	26	2938,736
	Arqoq iplari	27	2485,431
	Jami	28	5441,167
	Tanda	29	402,952
1 yilda talab qilindigan iplar miqdori tonna	Arqoq	30	340,796
	Jami	31	743,748
	1 soatda talab qilindigan iplar miqdori kg	32	2380,112
Soati topshiriq		32	2380,112

3.13. O'tish jarayonlari bo'yicha yarim maxsulotlarning chiqish foizi hisobi

20-jadval

№	O'tish jarayonlari	Chiqindi miqdori (%)	Yarim maxsulotning chiqim (%)
1.	Tandalash bo'limi	0,295	99,705
2.	Oxorlash bo'limi	0,125	99,58
3.	Ulash o'tkazish bo'limi	0,076	99,50
4.	To'quvchilik bo'limi	0,122	99,378

To'quv korxonasining o'timlari bo'yicha bir soatli maxsulotga bo'lgan talab hisobi.

1. Tandalash bo'limi

$$G_{\text{soat tal}}^{\text{tan}} = G_{\text{soat too}}^{\text{tan}} \cdot \frac{\text{yarim .max s.chiqind . foizi (tan d.)}}{100} = (\kappa_2) = 397 \cdot \frac{99,705}{100} = 395,828$$

2. Oxarlash bo'limi

$$G_{\text{soat taala}}^{\text{oxar}} = G_{\text{soat too}}^{\text{taa}} \cdot \frac{\text{yarim .max s.chiqind . foizi (oxor .)}}{100} (\kappa_2) = 397 \cdot \frac{99,58}{100} = 395,332$$

3. Ulash bo'limi

$$G_{\text{soat talab}}^{\text{ulash}} = G_{\text{soat topsh}}^{\text{tan}} \cdot \frac{\text{yarim .max s.chiqind . foizi (ulash) } \cdot n_1}{100} (\kappa_2) = 397 \cdot \frac{99,50 \cdot 0,9}{100} = 355,513$$

bu yerda: n_1 -umumiy korxona bo'yicha ulash foizi(90%)

4. O'tkazish bo'limi

$$G_{\text{soat talab}}^{\text{o'tk}} = G_{\text{soat topsh}}^{\text{tan}} \cdot \frac{\text{yarim .max s.chiqind . foizi (o'tkaz) } \cdot n_2}{100} (\kappa_2) = 397 \cdot \frac{99,50 \cdot 0,1}{100} = 39,501$$

bu yerda: n_2 - umumiy korxona bo'yicha o'tkazish foiz.(10%)

5.To'quvchilik bo'limi.

$$G_{\text{soat topsh}}^{\text{to'q.}} = G_{\text{soat topsh}}^{\text{to'q}} \cdot \frac{\text{yarim .max s.chiqind . foizi (to'quv) } \cdot n_2}{100} (\kappa_2) = 397 \cdot \frac{99,378}{100} = 394,530$$

3.14. Tayyorlov bo'limi mashina dastgoxlari muvofiqligi

21-jadval

Tayyorlov bo'limi mashina dastgoxlari muvofiqligini umumlash jadvali

№	Ko'rsatkichlar	Tanda lash	Oxar lash	O'tka zish	Ulash	Maxsulot sifati nazorati
1.	Soatli maxsulotga bo'lgan talab (kg)	395,828	395,332	39,5	355,5	2348,2
2.	Mashinaning unumdorlik normasi (kg/s)	204,75	301,07	192,4	1709	2940
3.	Ishdagi mashina va dastgoxlar soni	1,93	1,31	0,20	0,21	0,79
4.	F.I.K	0,97	0,95		0,93	0,96
5.	Tanlangan dastgoxlar soni	1,98	1,38	0,20	0,22	0,822
6.	O'rnatishga qabul qilingan dastgoxlar soni	2	2	1+1	1+1	1+1

3.15.Xom ashyo ombor hisobi.

Qopni o'lchami : Eni mm -1500;

Balandligi mm -1000

Babinani o'lchami:Babinani katta diametri mm;-220

Babainani balandligi -150+35=185mm;

Babinani og'irligi: tanda gr.-916

arqoq gr.-916

1.bitta qop egalaydigan maydon , m²

$$S = a * b = 1,5 * 1,0 = 1,5$$

a- qopni eni;

b-qopni balandligi.

2. qopdagi babinalar soni

$$n = n_1 * n_2 = 7 * 4 = 28$$

n_1 – qopni eni bo'yicha sig'adigan babinalar soni

$$n = \frac{a}{Db} = \frac{1500}{220} = 6,8 \approx 7,0$$

a –qopni eni, mm

Db- babinani katta diametri

n_2 – qopni balandligi bo'yicha sig'adigan babinalar soni

$$n_2 = \frac{h_{\kappa\kappa o} .}{h_{\delta\delta a} .} = \frac{1000}{185} = 5,4 \approx 5 - 1 = 4$$

hqop. - qopning balandligi;

hbab. - babinani balandligi

3.Tanda iplari uchun maydon hisobi,m².

a) qopning oxirligi tanda ipi uchun,kg.

$$G_{qop.t.} = G_{bab.t.} * n = 0,916 * 28 = 25,64k$$

G b.t-tanda babinasini og'irligi

n - qopdagi babinalar soni

b) tanda o'ramlari solingan qoplar soni

$$N_{kop .taa .} = \frac{G_{sut .t.}}{G_{q .t.}} = \frac{402 ,952 \times 24}{25 ,64} = 377 ,178 \approx 377$$

$G_{sut .tan}$ - bir sutkada talab etiladigan tanda iplarini og'irligi;

$G_{kop.tan.}$ - konus simon babinani og'irligi

v)tanda qoplari uchun maydon,m².

$$S_{\kappa .man .} = \frac{S \bullet N_{\kappa .man .}}{Q} = \frac{1.5 * 377}{4} = 141 ,37$$

S- bitta qop egalaydigan maydon

Q – qoplarni taklanishi (2-4)

4. Arqoq iplari uchun maydon, m^2 .

2. qopdagi babinalar soni

$$n = n_1 * n_2 = 7 * 4 = 28$$

n_1 – qopni eni bo'yicha sig'adigan babinalar soni-7

n_2 – qopni baland. buyicha sig'. babinalar soni-4

a) qopning og'irligi arqoq ipi uchun, kg.

$$G_{k.a.} = G_{b.a.} \cdot n = 0,916 * 28 = 25,648$$

$G_{b.a.}$ arqoq babinasini og'irligi,

n - qopdagi babinalar soni.

b) arqoq uchun qoplar soni

$$N_{kon.apk} = \frac{G_{suy.apk}}{G_{kko.apk}} = \frac{340,796 * 24}{25,648} = 318,89 \approx 319$$

$G_{sut.arq.}$ - bir sutkada talab etiladigan arqoq iplarini og'irligi;

$G_{k.arq.}$ - konus simon babinani og'irligi

v) arqoq qoplari uchun maydon, m^2 .

$$S_{kko.apk} = \frac{S \cdot N_{kko.apk}}{Q} = \frac{1,5 * 319}{4} = 119,62$$

S - bitta qop egalaydigan maydon

Q – qoplarni taklanishi (2-4)

5. tanda va arqoq iplari uchun umumiy maydon, m^2 .

$$S_{m.a.} = S_{kko.tan} + S_{kko.apk} = 141,37 + 119,62 = 260,99$$

$S_{qop.tan}$ - tanda qoplari uchun maydon

$S_{qop.arq.}$ - arqoq qoplari uchun maydon

5. Qo'shimcha maydon hisobi, m^2 .

a) bo'sh qoplar uchun maydon, m^2

$$S_1 = \frac{S_{m.a.} \cdot 30}{100} = \frac{260,99 * 30}{100} = 78,29$$

$S_{t.a.}$ - tanda va arqoq iplari uchun umumiy maydon

b) iplarni tsexga tarqatish uchun maydon, m^2

$$S_2 = \frac{S_{m.a.} \cdot 50}{100} = \frac{260,99 \cdot 50}{100} = 130,49$$

St.a. - tanda va arqoq iplari uchun umumiy maydon

6. Umumiy maydon, m²

$$S_{yy.} = S_{m.a.} + S_1 + S_2 = 260,99 + 78,29 + 130,49 = 469,77$$

St.a. - tanda va arqoq iplari uchun umumiy maydon

S₁ - bo'sh qoplar uchun maydon

S₂ - iplarni tsexga tarqatish uchun maydon

Stelaj hisobi.

1. Bir kunda talab qilinadigan to'quv g'altaklar soni

$$K_{m.z.}^{cym} = \frac{G_{cym.tan.}}{G_{xak.m.z.}} = \frac{9670,848}{403,4} = 23,973 \approx 24$$

G_{cym.tan.} - bir sutkada talab qilinadigan tanda iplari, kg.

G_{xak.m.z.} - to'quv g'altagini xaqiqiy og'irligi, kg.

2. Stelaj uzunligi, m.

$$L_{st es.} = D\phi \cdot K_{m.z.}^{cym} = 0,8 \cdot 24 = 19,2 \div 2 = 9,6 \approx 10,0$$

D_{fl.} - to'quv g'altagini flants diametri.

IV. Maxsus qism.

To'qimalarni tahlil qilish.

To'qimalarni tahlil qilish uchun namuna ajratish uni hususiyatini aniqlash qo'llanmasi

Gazlamalarni tahlil qilish uchun jadval № 1 ko'rsatilgan matolarni namunasi olindi.

22-jadval

Matolarni namunasi

Mato turi	Asos hom-ashyo	Ishlab chiqarilgan davlat	Tuzilish uslubi
Sochiq yungli	100%	O'zbekiston	Yungli
Sochiq vafel	100%	O'zbekiston	Vafel

Tanlangan namuna matolar tabiiy mahsulot bo'lib uning asosini paxta tolasi tashkil qiladi. Ularni to'qilish uslubi yungli va vafel uslublarida to'qilgan bo'lib, ularni to'qilish uslublar har xil bo'lganligi uchun o'z tarkibida (gigroskopicheskie) suyuqlikni qabul qilish, ushlab turish va qurish hositlari ham har xil bo'ladi. Buni aniqlashda ularni to'qish hususiyatlari yoki ular to'qishda ishlatiladigan hom-ashyoni turi sifatiga bog'liqligini o'rganamiz. Shuning uchun ularni hususiyatlarini o'rganish ushbu matolarni namunalari tanlab olindi.

O'rganilayotgan namunalarni stanlartlarga mos keluvchi hususiyatlarini ularni to'qilish uslublarini va ularni (gidrofil nosti) gigroskopiya hususiyatlarini har hilligini o'rganib chiqish bilan tanishamiz.

Matolarni sifatini aniqlashda har xil uslublar mavjuddir.

Shulardan:

- O'lchash uslubi;
- Hisoblash uslubi;
- Tahlil uslubi;
- Sinash uslubi;

- Ekspertiza uslubi;
- So'rovnoma uslublari.

Gigroskopik hususiyatini o'rganishda o'lchash uslubi qo'llaniladi. Ushbu uslub texnik o'lchash asboblarini ko'rsatkichlari asoslangan bo'ladi.

Bu uslub tekshirilayotgan matolarni namunasini hususiyatlarini ko'p qillrali va aniq hosiyatlarni tekshirish imkonini beradi.

Matolarni namunalari kesish uslubi bilan tekshirish uchun tanlab olinadi. Namunani tanlab olishda bo'lak uslubidan foydalaniladi. Bo'lak matoni eni bo'yicha to'la uzunligi bo'yicha, matoni eniga qarab tanlab olinadi.

Bo'lak namuna yordamida matoni o'lchamlari to'qilish hususiyatlari sifati aniqlanadi. Tanlab olingan mato namunasi GOST 3816. To'quv matosini suyuqlikni o'ziga qabul qilishi quritish va suyuqlik qabul qilmaslik hususiyatlari GOST 10681 – to'qimachilik mahsulotlari sinov o'tkazish uchun shart-sharoitlar.

GOST 11027 – donali gazlamalar paxta hom-ashyosidan tayyorlangan yungli va vafel matolar tayyorlanish talablari sinov uslubi va qo'shimcha, ushbu mahsulotlarni qurish vaqtini aniqlash.

Yuqoridagi talablarni bajarish va ushbu matolarni hususiyatlarini o'rganish jarayonida ushbu matolarni tayyorlash uslublari ularni matoni zichligi to'qilish uslubi, mahsulot hom-ashyosi sifati bir-biriga bog'liqligi yoki bog'liq emasligini o'rganaladi.

O'rganilayotgan mahsulotlarini o'lchamlarini, hususiyatlarini, tuzilishlarini aniqlash.

O'rganilayotgan matoni laboratoriya tekshiruvi bir partiya mahsulotdan bo'lak ajratib olib laboratoriya sinov ishlari olib boriladi. GOST 20566 – gazlamalar to'qimachilik mahsulotlari.

Qabul qilish va namuna ajratib olish.

Bo'lak namunasi: bu gazlamadan eni bo'yicha to'la uzunligi bo'yi bo'yicha gazlamani eniga qarab olinadigan namuna bo'lak namuna bo'yicha gazlamalarni quyidagi sifat me'yorlarini aniqlanadi.

- Hajmlari. Gazlama uzunligi, eni , qalinligi, hajmi;
- Og'irligi.
- O'lcham gazlama zichligi.
- Yuza mato zichligi.
- Matoni o'rtasi zichligi.
- To'qimani tanda va arqoqdagi 100 mm iplar soni.
- To'qimani yuza hisobli zichligi, to'qima faolitini to'ldirishi, to'qima iplarini bir-biriga bog'lanish koeffitsenti.
- $M' = 10^3 M/L,$ (1)

Bu yerda M — namuna og'irligi, g;

L — namuna uzunligi, mm.

$$M' = 10^3 \cdot 71,5/300 = 238,33 \text{ g/m.}$$

Mato yuza zichligi (g/m^2) - og'irligi 1 m^2 :

$$M_1 = 10^6 M/(L \cdot B),$$
 (2)

Bu yerda B — namuna eni, mm.

$$M_1 = 10^6 \cdot 71,5/(300 \cdot 1300) = 183,33 \text{ g/m}^2.$$

Tanda va arqoq iplarini chiziqli zichligi (Teks):

$$T_o = M_o/L_o,$$
 (3)

$$T_u = M_u/L_u,$$
 (4)

Bu yerda M_o , M_u – tanda va arqoq iplarni og'irligi, mg;

L_o , L_u – tanda va arqoq iplarni uzunligi, m.

$$T_o = 234,5/5 = 46,9 \text{ Teks,}$$

$$T_u = 263,3/5 = 52,6 \text{ Teks.}$$

Tanda va arqoq iplarni soni 100 mm:

$$P_o = 100(P_{1o} + P_{2o} + P_{3o})/(3V),$$
 (5)

$$P_u = 100(P_{4u} + P_{5u} + P_{6u} + P_{7u})/(4V),$$
 (6)

Bu yerda P_{1o} , P_{2o} , P_{3o} , P_{4u} , P_{5u} , P_{6u} , P_{7u} –lenta dagi iplar soni;

V – lenta eni, mm.

$$P_o = 100(50 + 50 + 50)/(3 \cdot 25) = 200 \text{ ip,}$$

$$P_u = 100(42+41+42+40)/(4 \cdot 25) = 165 \text{ ip.}$$

Hisobni yuza zichligi (qisqarishsiz) (g/m^2)

$$M_1' = 0,01(T_o P_o + T_u P_u), \quad (7)$$

Bu yerda T_o, T_u — Tanda va arqoq iplarni chiziqli zichligi, Teks;

P_o, P_u — 100 mm to'qimalarni tanda va arqoq iplarni soni.

$$M_1' = 0,01(46,9 \cdot 200 + 52,6 \cdot 165) = 180,59 \text{ g/m}^2.$$

To'qima yuzasini farqi:

$$\Delta = (M_1 - M_1')/M_1 \cdot 100. \quad (8)$$

$$\Delta = (183,33 - 180,59)/183,33 \cdot 100 = 1,5 \text{ \%}.$$

To'qimani hisoblash % dan oshmasligi kerak, aks holda qaytadan to'qima ipni zichliklari aniqlandi.

To'qimaning o'rtacha zichligi (mg/mm^3):

$$\delta = 10^3 M/(LBb), \quad (9)$$

- 1) Tanda va arqoq iplarini chiziqli to'ldirilishi ikki ip orasidan masofada tanda va arqoq iplarini hisoblash diametrlarini aylanishi dt yoki da

$$E_o = P_o d_o, \quad (10)$$

$$E_u = P_u d_u. \quad (11)$$

$$E_o = 200 \cdot 0,25 = 50,0 \text{ \%},$$

$$E_u = 165 \cdot 0,27 = 44,6 \text{ \%}.$$

- 2) To'qimani to'lish – bu birlik uzunligini joylashgan tanda va arqoq iplari.

$$'_o = E_o + E_u P_o / P_u, \quad (12)$$

$$N_u = E_u + E_o P_u / P_o. \quad (13)$$

$$'_o = 50 + 44,6 \cdot 200 / 165 = 104 \text{ \%},$$

$$N_u = 44,6 + 50 \cdot 165 / 200 = 86 \text{ \%}.$$

- 3) Bog'lanish koeffitsienti bu tanda va arqoq iplarini to'qima yuzasidan astariga o'tishidir.

$$K_o = N_o / E_o; . \quad (14)$$

$$K_u = N_u / E_u. \quad (15)$$

$$K_o = 104 / 50 = 2,1,$$

$$K_u = 86 / 44,6 = 1,9.$$

4) Yuza to'ldirilishi bu, proektsiyasidagi ipni minimal elementlarini umumiy yuzaga nisbatidir.

$$E_s = E_o + E_y - 0,01 E_o E_y. \quad (16)$$

$$E_s = 50 + 44,6 - 0,01 \cdot 50 \cdot 44,6 = 72 \, \%.$$

5) Hajmni to'ldirilishi, bu ip hajmini umumiy to'qima hajmiga nisbatan.

$$E_v = \delta_t / \delta_n \cdot 100, \quad (17)$$

Bunda δ_n — To'qima iplarni o'rtacha zichligi, agar $\delta_o = \delta_u$, mg/mm³;

δ_t — to'qima o'rtacha zichligi, mg/mm³.

$$E_v = 0,38 / 0,95 \cdot 100 = 40 \, \%$$

6) To'qimani og'irligi bo'yicha zichligi, bu to'qimani og'irligini uning yuqori yuza og'irligiga nisbati.

$$E_m = \delta_t / \rho \cdot 100, \quad (18)$$

bunda ρ — iplar yoki to'qima yuza zichligi, mg/mm³.

$$E_m = 0,38 / 1,5 \cdot 100 = 25 \, \%.$$

7) Yuza g'ovakligi, bu g'ovaklik yuzini umumiy yuziga nisbatidir.

$$R_s = 100 - E_s. \quad (19)$$

$$R_s = 100 - 72 = 28 \, \%.$$

Umumiy g'ovakli (%) ko'rsatkichini iplar orasidagi havo bo'shliqlari

8) Hajmli g'ovaklik, ip oralig'i, ipdagi tola qatlanishi hisobiga olingan to'qima.

$$R_v = 100 - E_v. \quad (20)$$

$$R_v = 100 - 40 = 60 \, \%.$$

9) To'qima o'rilishi, bu tanda ipida arqoq ipini aylanishi yoki teskari. O'rilish bo'lib lupa yordamida aniqlanadi.

$$R_m = 100 - E_m. \quad (21)$$

$$R_m = 100 - 25 = 75 \, \%.$$

10) To'qima namunalarini o'lchab qiymatlari va hisob kiob natijalari vaqtdan keltirilgan.

O'lchov hossalari va hisobotlar har bir mato namunasini № 2 jadvalda keltirilgan

23-jadval

O'lchov va hususiyatlarini aniqlangan hisoboti

Ko'rsatkichlar nomi	Gazlama nomi	
	Tukli sochiq	Vafel sochiq
1	2	3
Namuna uzunligi L, mm	300	300
Gazlama eni B, mm	400	1400
Gazlama qalinligi, mm	2,70	0,61
Gazlama og'irligi m, g	67,0	73,08
Chiziq bo'yicha mato zichligi Mo, g/m	223,33	243,60
Mato ustki gazlama ustki zichligi M1, g/m ²	558,33	174,0
Chiziq bo'yicha ipni zichligi To, teks	55,6	28,0
Chiziq bo'yicha mato ipini zichligi Tu, teks	47,1	55,2
Arqoq gazlama tan bo'yicha 100 mmi plar soni	2801	200
Gazlamani arqoq bo'yicha 100 mm iplar soni	2001	210
Gazlamani hisobot bo'yicha zichligi yo'qotish iplar hisobotdan tashqari, g/m ²	-1	171,92
Gazlamani ustki hisobidagi zichligi hosil bo'lgan bo'lakdan farqi, %	-1	1,2
Gazlamaning o'rtacha zichligi δt , mg/mm ³	0,21	0,29
Ipni arqoq bo'yicha hisosobli diametri do, mm	0,29	0,20
Chiziq bo'ylab du, mm	0,26	0,29
Chiziq bo'ylab gazlamani to'ldirish tan bo'ylab Eo, %	81,21	40,0
Chiziq bo'ylab gazlamani to'ldirish arqoq bo'y Eu, %	52,01	60,9
